

**O'ZBEKISTONDA INSON HUQUQLARI VA AYOLLARGA
O'TKAZILAYOTGAN TAZYIQLAR**

Vahobjonova Firdavsxon Vohid qizi

*Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Qo'qon filiali 3-23
Itisodiyot guruhi talabasi*

Annotatsiya: O'zbekistonda inson huquqlari va ayollarni himoya qilish borasida olib borilayotgan ishlarning tavsifi.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, Ombudsman, huquq va erkinliklar, zo'ravonlik, huquqiy madaniyat, qonun.

KIRISH.

O'zbekiston tarixining mustaqillik yillari avvalgi davrdan farqli o'laroq aynan istiqbol tufayli yurtimizda inson huquqlari va erkinliklari kafolati uchun zarur shart-sharoitlar yaratilgani bilan alohida ajralib turadi. Avvalo shuni aytish kerakki, bu O'zbekiston Konstitutsiyasida o'z ifodasini topdi. Unda eng oliy qadriyat sifatida davlat va ijtimoiy tizimi emas, balki inson huquqi kafolatlab qo'yildi.

Konstitutsiyaning 13- moddasida “O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi”, deb belgilab qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi hududida istiqomat qiluvchi fuqarolar hayotning barcha sohalarida iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy, huquqiy va boshqa munosabatlarda bir birlari bilan teng huquqqa ega bo'ldilar.

Ayrim fuqarolarning istagan dinga e'tiqod qilishi yoki qilmasligi qonun bilan kafolatlanib, o'zlarining ixtiyoriga berilgan bo'lib bu huquqning amalga oshirilishi meyoriy qonunlar bilan mustahkamlandi.

Fuqarolarning dinga munosabati O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining
www.pedagoglar.org

“Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida”gi qonun bilan tartibga solindi, hamda ularning daxlsizligi ta'minlanmoqda . Istiqlol yillaridagi katta yutuqlardan biri shundaki, O'zbekistonda shaxs erkinligi, inson huquqlarining muxofazasi va kafolati, e'tiqod, mehnat va kasbni erkin tanlash huquqi, ta'lim olish, ijtimoiy muhofaza va boshqa imkoniyatlar qonun bilan himoya qilinadigan bo'ldi.

Bu borada shuni ta'kidlash kerakki, hozirgi qiyin va ziddiyatli bir paytda mamlakatimizning turli sarhadlariga yaqin joylarda urushlar ro'y berib, qon to'kilib, begunoh odamlar qurbon bo'layotgan bir paytda O'zbekistonda inson uchun eng oliy ne'mat yashash huquqi va osoyishta hayot kechirish huquqi to'la ta'min etildi. Bir so'z bilan aytganda xuddi ana shu murakkab yillarda O'zbekistonda umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi yanada mustahkamlanib, yangi demokratik jarayonlar odamlar ongi va qalbi orqali o'tkazilib, hayotga tobora chuqurroq kirib bora boshladi.

Istiqlol yillarida fuqarolarning huquqlarini aks ettiruvchi, himoya qiluvchi, ularning turli sohalaridagi faoliyatini tartibga soluvchi 300 dan ortiq qonun va Parlamentning Qonunga tenglashtirilgan qarorlari tizimi vujudga keldi. Bir yarim mingdan ortiq Prezident farmoni va Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilinganligi, ayni ana shu tarixan juda qisqa davrda amalga oshirilgan ishlar ko'lamini ko'rsatadi.

Ularning aksariyati fuqarolar huquqini muhofaza qilish, ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va siyosiy himoyalashni ta'minlashga qaratilgandir. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, 15 va 49 yoshdagi xotin-qizlarning 25% dan ko'prog'I hayoti davomida jismoniy yoki jinsiy zo'ravonlikka duch kelishadi. Ushbu zo'ravonliklarning 33 %i Janubi-Sharqiy Osiyo hududiga to'g'ri kelmoqda.

Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili nomiga yo'llangan murojaatlar tahlili, 2021 yilning 15 apreliga qadar xotin-qizlar tomonidan 20ga yaqin jinsiy va jismoniy zo'ravonlik, ruhiy tazyiq o'tkazish bilan bog'liq holatlari bo'yicha murojaat kelib tushganini ko'rsatmoqda.

Milliy qonunchiligimizda avvalambor Konstitutsiyamiz, shuningdek xalqaro

standartlarga mos xotin-qizlarning huquqlarini kafolatlovchi maxsus qonunlar, shuningdek bir qancha normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonunida jins bo'yicha kamsitishga yo'l qo'ymaslik, hamda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash kafolatlari belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020- yil 4-yanvar kuni 3-son Qarori bilan "Tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarga himoya orderini berish, ijrosini ta'minlash va monitoring olib borish to'g'risida"gi Nizom tasdiqlandi.

Bu order orqali xotin-qizlarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, tazyiqlarga va zo'ravonliklarga qarshi kurash, inson haq-huquqlarini o'rganish kabi bir qator ishlar amalga oshirildi. O'zbekistonda ayollarga bo'lgan hurmat va e'tibor,gender tenglik masalalarining yuqori darajada ekanligining yana bir isboti ham yuqoridagi ishlar orqali yaqqol namoyon bo'lmoqda desak mubolag'a bo'lmaydi.

XULOSA.

So'nggi paytlarda ijtimoiy tarmoqlar orqali xotin-qizlarga nisbatan turli ko'rinishdagi zo'ravonlik, ruhiy va jismoniy tazyiqlar o'tkazilyotgani,ularni o'z joniga qasd qilish darajasiga olib borilayotgani bilan bog'liq nohush xabarlar ko'p tarqalmoqda. Bir narsa aniqki, ayollarga nisbatan zo'ravonlik holatlari aslida bundan-da ko'p bo'lishi mumkin. Buni inkor eta olmaymiz.

O'zbek ayoli qanchalik qiynalsa ham, uni ijtimoiy tarmoqlar u yoqda tursin, hatto mahalla-ko'y, tanish-bilishlariga ham oshkor etishni istamaydi. Shuning uchun bir qator tashkilotlar jumladan, Ombudsman ham nafaqat bolalarni balki xotin-qizlarning ham haq –huquqlarini,erkinliklarini ta'minlash, muhofaza qilish bo'yicha bir qator ishlarni amalga oshirmoqda. O'zbekiston Respublikasida barcha insonlarning huquq va erkinliklari birdek ta'minlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 30.04.2023
2. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi 10.12.1948
3. Gender tenglik bo'yicha butunjahon statistikasi.
4. Gender tengligi ko'rsatkichi ro'yxati

FOYDALANILGAN INTERNET SAYTLARI

1. <https://lex.uz/docs/-4494849> Xotin-qizlar teng huquq kafolatlari to'g'risidagi O'RQ-562 02.09.2019
2. uz.wikipedia.org
3. www.kun.uz
4. <https://stat.uz>
5. <https://uzbekistan.un.org>